# O'rnatish menyusiga kirish

1 **SETTINGS (PARAMETRLAR)** tugmasini 5 soniyacha bosib turing.




2 Toast (Yuqori o'ng burchak ) namoyish qilinganda parolingizni kiriting.

(Standart qiymat 0, 0, 0, 0 → )


3 **O'rnatish menyusi** namoyish qilinganda kerakli optsiyani tanlang.

- **Signage Setup (Signage-ni o'rnatish)**
- **USB Cloning (USB klonlash)**
- **Password Change (Parolni o'zgartirish)**
- **Tile Mode (Plitka rejimi)**
- **Fail Over (Xatoliklarga chidamlilik)**
- **Server**
- **Lock Mode (Qulflash rejimi)**

**ESLATMA:**

- Qo'llanmadagi tasvirlar haqiqiy mahsulotdan farq qilishi mumkin.

# O'rnatish menyusi

**ESLATMA:**

- O'rnatish qo'llanmasida tavsiflangan ba'zi bir xususiyatlar ayrim modellarda qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.

## Signage Setup Menu (Signage-ni o'rnatish menyusi)

O'rnatgandan keyin Raqamli Signage-ni sozlash uchun shu menyudan foydalaning.

**Power On Status (Yoqish holati)**

- Asosiy quvvat ta'minoti yoqilganda siz monitorning ishlash holatini tanlashingiz mumkin.
- Siz PWR, STD va LST-lar orasidan tanlashingiz mumkin.
- PWR asosiy quvvat ta'minoti yoqilishi bilan monitor holatini Yoqish-ga o'rnatadi.
- STD asosiy quvvat ta'minoti yoqilishi bilan monitor holatini Kutish rejimih-ga o'rnatadi.
- LST monitor holatini avvalgi holatiga qayta o'rnatadi.

**IR Operation (Infraqizil ishlashi)**

- Agar siz Infraqizil ishlashini Normal-ga o'rnatsangiz, masofadan boshqarish pultidan foydalanishingiz mumkin bo'ladi.
- Agar Infraqizil ishlashini Faqat Quvvat tugmasi-ga o'rnatsangiz, siz faqat quvvat tugmasidan foydalanishingiz mumkin.
- Agar Infraqizil ishlashini Barchasini bloklash-ga o'rnatsangiz, siz masofadan boshqarish pultidan foydalana olmaysiz.

**Wake On LAN**

- Siz Wake On LAN xususiyatidan foydalanish yoki foydalanmaslikni o'rnatishingiz mumkin.
- Siz bu optsiyani Yoqish yoki O'chirish-ga o'rnatishingiz mumkin.
- Agar siz bu optsiyani Yoqish-ga o'rnatsangiz, Wake On LAN xususiyati yonadi va siz mahsulotni LAN orqali masofadan yoqishingiz mumkin.
- Agar siz bu optsiyani O'chirish-ga o'rnatsangiz, Wake On LAN xususiyati o'chirib qo'yiladi.

**No Signal Power Off (15 Min) (Signal bo'lmaganda o'chirish (15 daq))**

- Siz 15 daqiqali majburiy o'chirish xususiyatidan foydalanish yoki foydalanmaslikni o'rnatishingiz mumkin.
- Siz bu optsiyani Yoqish yoki O'chirish-ga o'rnatishingiz mumkin.
- Agar siz bu optsiyani Yoqish-ga o'rnatsangiz, mahsulot 15 daqiqa Signal yo'q holatida qolganida u o'chadi.
- Agar siz bu optsiyani O'chirish-ga o'rnatsangiz, 15 daqiqali majburiy o'chirish (15 Min Force Off) xususiyati o'chirib qo'yiladi.
- Mahsulotdan uzoq vaqt davomida foydalanganingizda bu opsiyani O'chirish-ga o'rnating.

**Auto Power Off (Avtomatik o'chirish)**

- Siz 4 soatlik o'chirish (4 Hours Off) xususiyatidan foydalanish yoki foydalanmaslikni o'rnatishingiz mumkin.
- Siz bu optsiyani 4 soatlik o'chirish (4 Hours Off) yoki O'chirish-ga o'rnatishingiz mumkin.
- Agar siz bu optsiyani 4 soatlik o'chirish (4 Hours Off) -ga o'rnatsangiz, 4 soat davomida masofadan boshqarish pultidagi hech qanday tugmani bosmasangiz, mahsulot o'chadi.
- Agar siz bu optsiyani O'chirish-ga o'rnatsangiz, 4 soatlik o'chirish (4 Hours Off) xususiyati o'chirib qo'yiladi.
- Mahsulotdan uzoq vaqt davomida foydalanganingizda bu optsiyani O'chirish-ga o'rnating.

**DPM**

- Siz DPM (Display Power Management) funktsiyasini sozlashingiz mumkin.
- O'chirish: siz bu optsiyani O'chirish, 5 sec(5 soniya)./10 sec(10 soniya)./15 sec.(15 soniya)/1 min.(1 daqiqa)/3 min.(3 daqiqa)/5 min.(5 daqiqa)/10 min.(10 daqiqaga) o'rnatishingiz mumkin.
- Agar bu optsiya O'chirish-ga o'rnatilmagan bo'lsa, kirish signali bo'lmagan hollarda monitor DPM rejimiga kiradi.
- Agar siz bu optsiyani O'chirish-ga o'rnatsangiz, DPM xususiyati o'chirib qo'yiladi.
- Quyidagi vaziyatlarda DPM-ni O'chirish yoki faqat 10 daqiqaga o'rnatishingiz mumkin. Agar DPM 5 son, 10 son, 15 son, 1 daq yoki 5 daqiqaga o'rnatilgan bo'lsa, u 10 daqiqaga o'zgartiriladi.
  - USB Auto Playback (USB avtomatik o'ynatishi) Photo (Fotosurat) yoki Movie (Film)ga o'rnatilgan bo'lganda.
  - Fail Over (To'xtab qolish) Auto (Avtomatik) yoki Manual (Qo'lda)ga o'rnatilgan bo'lganda.

**Baud rate (Ma'lumotlarni uzatish tezligi) (9600/115200)**

- Monitoringizni boshqarish uchun siz RS-232 aloqa tezligini o'zgartirishingiz mumkin.
- Siz 9600 yoki 115200 ni tanlashingiz mumkin.
- Agar siz bu optsiyani 9600 ga o'rnatsangiz, RS-232 aloqa tezligi 9600 b/son ga o'rnatiladi.
- Agar siz bu optsiyani 115200 ga o'rnatsangiz, RS-232 aloqa tezligi 115200 b/son ga o'rnatiladi.

**OSD Portrait Mode (OSD Portret rejimi (O'chirish, Yoqish))**

- OSD-ni soat miliga qarshi aylantiradi.
- Siz bu optsiyani Yoqish yoki O'chirish-ga o'rnatishingiz mumkin.
- Agar siz bu optsiyani O'chirish-ga o'rnatsangiz, funktsiya faolsizlantiriladi.
- Agar yoqilgan bo'lsa, OSD soat miliga qarshi 90 daraja aylanadi. Bu holda sichqonchadan foydalana olmaysiz.

**Power On Delay (Yoqishni kechiktirish) (0 - 250)**

- Bir necha monitorlar bir vaqtda yoqilgan vaqtda ortiqcha yuklanish bo'lishining oldini olish uchun bu funktsiya yoqishni kechiktiradi.
- Siz kechiktirish oralig'ini 0 dan 250 soniyagacha o'rnatishingiz mumkin.

**Digital Audio Input (Raqamli audio kirishi)**

- HDMI/DISPLAYPORT: Siz HDMI yoki DISPLAYPORT tomonidan monitor dinamiklari orqali uzatilgan raqamli signallar tovushlarini eshitishingiz mumkin.
- Audio kirishi (Audio In): siz HDMI yoki DISPLAYPORT portlarini Audio In portiga ulash orqali monitor dinamiklari orqali tovushlarni eshitishingiz mumkin.

**Speaker (Dinamik)**

- Agar siz bu paramertni Yoqish-ga o'rnatsangiz, monitor dinamiklari orqali tovushlarni eshitishingiz mumkin. (* Monitor dinamiklari alohida sotiladi.)
- Agar siz bu paramertni O'chirish-ga o'rnatsangiz, monitor dinamiklari orqali tovushlarni eshita olmaysiz.

**USB Auto Playback (USB avtomatik o'ynatish)**

- Bu USB qurilma ulanganda fotosuratlar va videolarni avtomatik o'ynatuvchi xususiyatdir. Siz Fotosuratlar/Filmlarni ko'rish menyusini qo'lda tanlash orqali fotosuratlar va videolarni ko'rishingiz mumkin.
- Agar siz USB Auto Playback (USB Avtomatik O‘ynatish) uchun Filmni tanlasangiz, USB qurilmasining eng yuqori papkasidagi video fayllari avtomatik ravishda ketma-ket o‘ynatiladi. Yoqilganda Signage USB qurilmadan video fayllarni avtomatik ravishda qidiradi va o'ynatadi.
- Agar kirish Fail Over (Xatolarga chidamlilik) tufayli Internal Memory (Ichki xotira)ga o‘zgarsa, Internal Memory (Ichki xotira)ning eng yuqori papkasidagi video fayllari yoki rasm fayllari namoyish qilinadi. Yoqilganda. Signage USB qurilmadan fotosuratlarni avtomatik ravishda qidiradi va o'ynatadi. Biroq SuperSign tarkiblari o'ynatilayotgan vaqtda bu xususiyat mavjud bo'lmaydi.

**Set ID (1 ~ 1000) (ID-ni o'rnatish)**

- Displey uchun bir nechta mahsulot ulanganda siz har bir mahsulotga o'ziga xos ID-ni o'rnatish raqamini berishingiz mumkin. 1 dan 1000 gacha bo'lgan raqamlarni bering va opsiyadan chiqing. O'zingiz har bir mahsulotga bergan ID-ni o'rnatish (Set ID)-dan foydalangan holda har bir mahsulotni boshqarishingiz mumkin.

**Reset Set ID (ID-ni o'rnatishni qaytadan o'rnatish)**

- Siz mahsulotning ID-ni o'rnatish (Set ID)-ni 1 ga qaytadan o'rnatishingiz mumkin.

**Standby PWR Control (Kutish rejimidagi PWR Boshqaruvi)**

- Monitor o'chirilganda EDID qiymatini saqlash uchun parametrni o'rnatadi.
- U On (Yoqish) yoki Off (O'chirish)-ga o'rnatilishi mumkin.
- Agar siz uni On (Yoqish)-ga o'rnatsangiz, monitor o'chirilganda EDID qiymati saqlanadi.
- Agar siz uni Off (O'chirish)-ga o'rnatsangiz, monitor o'chirilganda EDID qiymati yo'qotiladi.
- Agar "Off (O'chirish)"-ga o'rnatilgan bo'lsa, Kirish va Modelga ko'ra EDID qiymati saqlab qo'yilishi mumkin.

**Multi Display Mode**

- DP kirishidan olingan kirish signali yolg'iz rejimda yoki multi-rejimda DP chiqishi orqali namoyish qilinadi.
- Agar u O'chirilgan bo'lsa, har bir displeydagi tasvir multi-rejimda namoyish qilinadi.
- Agar u Yoqilgan bo'lsa, har bir displeydagi tasvir yolg'iz rejimda namoyish qilinadi.

**BLU Maintenance Mode (BLU xizmat ko'rsatish rejimi)**

- Yorqinlikka xizmat ko'rsatish funktsiyasini yoqadi yoki o'chiradi.
- Agar On (Yoqilgan) bo'lsa, yorqinlikka xizmat ko'rsatish funktsiyasi yoqilgan bo'ladi.
- Agar Off (O'chirilgan) bo'lsa, yorqinlikka xizmat ko'rsatish funktsiyasi o'chirilgan bo'ladi.

**Power Indicator (Quvvat ko'rsatkichi)**

- Bu xususiyat quvvat ko'rsatkichi parametrlarini sozlashga imkon beradi.
- Agar On (Yoqilgan) bo'lsa, quvvat ko'rsatkichi yoqilgan bo'ladi.
- Agar Off (O'chirilgan) bo'lsa, quvvat ko'rsatkichi o'chirilgan bo'ladi.
- Quvvat ko'rsatkichi parametri On (Yoqilgan) yoki Off (O'chirilgan) holatiga qaramasdan monitor yoqilganda quvvat ko'rsatkichi taxminan 15 soniya yoqilgan bo'ladi.

(Modelga bog'liq ravishda bu xususiyat qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.)

**Factory Reset (Zavod sozlanmalariga qayta tiklash)**

- Siz mahsulotni zavod sozlanmalariga qaytadan o'rnatishingiz mumkin.

(Modelga bog'liq ravishda bu xususiyat qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.)

## USB Cloning Menu (USB klonlash menyusi)

Siz mahsulot parametrlarini boshqa qurilmalarga nusxa ko'chirishingiz mumkin.

**Send to USB (USB-ga yuborish)**

- Siz fayl formatidagi joriy parametrlarni USB qurilmasiga saqlashingiz mumkin.
- Fayl nomini tanlang va yakunlash uchun "OK" tugmasini bosing.
- Siz quyidagi elementlarni saqlay olmaysiz: TASVIR, Soat, Uyqu vaqti, Yoqishni kechiktirish (Power on delay), ID-ni o'rnatish (Set ID), Plitka ID (Tile ID) ostidagi Kengaytirilgan boshqaruv va TARMOQ ostidagi elementlar.

**Receive From USB (USB-dan olish)**

- Siz USB qurilmasidan konfiguratsiya fayllarini import qilishingiz va joriy qurilma uchun parametrlarni o'zgartirishingiz mumkin.
- Boshqa modeldan olingan sozlanmalar faylidan foydalanish bu mahsulotda to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Import qilish yakunlanishi bilan besh soniyadan keyin qurilma o'chadi.

**Logotip tasvirni yuklab olish (Logo Image Download)**

- Siz yuklash tasvirlarini yuklab olishingiz va qo'llashingiz mumkin.
- Siz qo'llamoqchi bo'lgan tasvir USB qurilmasining eng yuqori darajasidagi "LG_MONITOR" papkasiga saqlangan bo'lishi kerak.
- Yuklab olish yakunlanishi bilan qurilma o'ch ib yonadi va yuklash tasviri qo'llaniladi.

**EHTIYOT BO'LING**

- Konfiguratsiyani klonlash funktsiyasidan foydalanish uchun FAT32 fayl tizimidan foydalanib, formatlangan USB saqlash qurilmasidan foydalaning. Agar USB saqlash qurilmasi boshqa fayl tizimi bilan formatlangan bo'lsa, u to'g'ri ishlamasligi mumkin.

## Password Change Menu (Parolni o'zgartirish menyusi)

Siz O'rnatish menyusida o'z parolingizni o'zgartirishingiz mumkin.
Siz o'z parolingizni xavfsizlik maqsadlarida o'zgartirishingiz mumkin. Yangi 4 ta raqamli parolni kiriting. Tasdiqlash uchun "Parolni tasdiqlash (Confirm Password)" maydoniga o'sha parolni qaytadan kiriting.

## Tile Mode Menu (Plitka rejimi menyusi)

Siz birlashtirilgan ekranni har bir ekranni sozlaganingiz kabi sozlashingiz mumkin.
Bu funktsiyadan foydalanish uchun
- Boshqa turli mahsulotlar bilan birgalikda namoyish qilingan bo'lishi kerak.
- DP kabeliga va taqsimlagichga ulanishi mumkin bo'lgan funktsiyada bo'lishi kerak.
- Plitka rejimi: ustun x qator (c = 1 dan 15 gacha r = 1 dan 15 gacha)
- 15 x 15 mavjud.

### Row (Qator) (1-15)

- Plitkalar qatorlari raqamini o'rnating.

### Column (Ustun) (1-15)

- Plitkalar ustunlari raqamini o'rnating.

### Tile ID (Plitka ID) (1-255)

- Plitka uchun ID-ni o'rnating.
- Siz tanlagan ID ekranda namoyish qilinadi.

### Natural (Tabiiy)

- Tabiiyroq namoyish qilish uchun ekranlar orqasidagi masofani hisobga olgan holda tasvir qisman tushirib qoldiriladi.

### Reset (Qayta tiklash)

- Tile Mode (Plitka rejimi) optsiyasini tiklaydi.
- Agar Tile Reset (Plitkani tiklash)ni tanlasangiz, barcha Plitka parametrlari tiklanadi va ekran Full Screen Mode (To'liq ekran rejimi)ga qaytadi.

### ESLATMA

- Agar Plitka rejimi yoqilgan bo'lsa, boshqa displeylar bilan bir xil tasvir sifatini ta'minlash uchun Energiyani aqlli tejash o'chirib qo'yiladi.

## Plitka rejimi

Katta plitkasimon displeyni yaratish uchun ushbu monitor boshqa monitorlar bilan plitka ko'rinishida birlashtirilishi mumkin.

**O'chirilgan:**
Plitka rejimi parametri o'chirilganda

**1X2**
2 ta monitordan foydalanganda




**2X2**
4 ta monitordan foydalanganda




**3X3**
9 ta monitordan foydalanganda




**4X4**
16 ta monitordan foydalanganda




**5X5**
25 ta monitordan foydalanganda




## Plitka rejimi - Tabiiy rejim

Faol bo'lganida tasvirning odatda monitorlar oralig'ida namoyish qilinishi kerak bo'lgan qismi tushirib qoldiriladi.

Avval



Keyin



## Fail Over Menu (Xatoliklarga chidamlilik menyusi)

Eng yuqori ustuvorlikka ega bo'lgan kirish manbai tanlanadi.

**O'chirish**

- Avtomatik xatoliklarga chidamlilik xususiyati o'chirib qo'yiladi.

**Avto**

- Kirish manbai ko'rsatilgan tartibda o'zgaradi. Bir nechta kirish manbalari topilganda eng yuqori ustuvorlikka ega bo'lgan kirish manbai tanlanadi.
- Ustuvorlik: 1. HDMI1, 2. HDMI2, 3. DISPLAYPORT, 4. DVI-D va 5. Internal Mamory

**Qo'lda (Manual)**

- Kirish manbai ko'rsatilgan tartibda o'zgaradi. Bir nechta kirish manbalari topilganda eng yuqori ustuvorlikka ega bo'lgan kirish manbai tanlanadi.
- 1-ustunlikni 4-ustunlikka o'rnatishingiz mumkin. 5-ustunlik Ichki xotiraga belgilangan.

**ESLATMA**

- File Manager (Fayl boshqaruvchisi) tomonidan nusxalangan tarkib negiz papkaga saqlanadi.
- Agar kirish Fail Over (Xatolarga chidamlilik) tufayli Internal Memory (Ichki xotira)ga o‘zgarsa, Internal Memory (Ichki xotira) ning eng yuqori papkasidagi video fayllari yoki rasm fayllari namoyish qilinadi.
- Agar bitta papkada ham video fayllari, ham rasm fayllari mavjud bo‘lsa, faqat video fayllari o‘ynatiladi.
- SuperSign tomonidan taqdim etilgan tarkib ichki xotirada "normal" deb nomlangan papkada saqlanadi. Shuning uchun SuperSign tomonidan taqdim etilgan tarkib Fail Over (Xatoliklarga chidamlilik) tufayli avtomatik ravishda o‘ynatilmaydi.

## Server Menu (Server menyusi)

**Avtomatik ravishda o'rnatmoq (Set Automatically)**

- SuperSign serveri uni qidirib topa olishi uchun monitor avtomatik ravishda o'rnatiladi.

**Server IP**

- Bu SuperSign serveri uchun IP-manzilni o'rnatishingiz mumkin bo'lgan menyudir.

**Server holati (Server Status)**

- Server holati (Server Status) monitoringiz bilan SuperSign serveri o'rtasidagi ulanish holatini namoyish qiladi.
- Not Connected (Ulanmagan): monitoringizning SuperSign serveriga ulanmaganligini ko'rsatadi.
- Waiting for Approval (Tasdiqlashni kutish): monitoringizning SuperSign serveriga ulanganligini, biroq hali tasdiqlanmaganligini ko'rsatadi.
- Rejected (Tasdiqlash rad qilingan): monitoringizning SuperSign serveriga ulanganligini, biroq rad qilinganligini ko'rsatadi.
- Connected (Ulangan): monitoringizning SuperSign serveriga ulanganligini va tasdiqlanganligini ko'rsatadi.

## Lock Mode Menu (Qulflash rejimi menyusi)

**USB**

- Siz USB qurilmalaridan foydalanishning oldini olishingiz mumkin.

**Parametrlarni dastlabki qiymatlariga qayta o'rnatish (Reset to Initial Settings)**

- Siz parametrlarni dastlabki qiymatlaridan foydalanishning oldini olishingiz mumkin.